

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 3-mart holatiga

Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-sonli farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosari huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

Shu bilan birga, 2026-yil 9-fevral kuni vazirlikning hay’at yig‘ilishida “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi muxokama qilinib, mas’ullarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi oshirilgan.

2026-yilning fevral oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 22-fevralga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 19-yanvar kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

2026-yilning fevral oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan 29 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining barchasi (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

51 ta Prezident topshiriqlarining 50 tasi bajarilgan hamda 1 tasi bajarilmagan va 31 ta Administratsiya rahbari topshiriqlarining 29 tasi bajarilgan, 2 tasi bajarilmagan. Bugungi kunda, ushbu topshiriqlarni nazoratdan olish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2026-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 237 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 183 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 54 tasida hamijrochi.

Administratsiya rahbarining 35 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 29 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 6 tasida hamijrochi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 90 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 52 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 38 tasida hamijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay‘at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi